

## 73. Uzunlik birliklari

**Yondosh mavzu:**

temir yo'l.

Metr, kilometr.




1. 3-sinf o'quvchisining qadam uzunligi taxminan 35 cm. Madina maktabgacha 4 780 qadam yurdi. Madina necha metr yurdi?

**Juda katta uzunliklar kilometrlarda o'lchanadi.**

**O'qilishi: bir kilometr ming metrga teng.**

**Yozilishi:  $1 \text{ km} = 1000 \text{ m}$ .**



2. Berilgan uzunlik birliklarida ifodalang.

$$8\,000 \text{ m} = \square \text{ km}$$

$$7 \text{ km } 233 \text{ m} = \square \text{ m}$$

$$4\,078 \text{ m} = \square \text{ km } \square \text{ m}$$

$$56\,000 \text{ km} = \square \text{ km}$$

$$3 \text{ km} = \square \text{ dm}$$

$$7\,200 \text{ dm} = \square \text{ m}$$

3. Eng kichik o'lchov birligiga o'tkazib hisoblang.

$$1 \text{ km } 239 \text{ m} + 8\,739 \text{ m}$$

$$1 \text{ km } 178 \text{ m} \cdot 39$$

$$(4 \text{ km } 23 \text{ m} - 2 \text{ km } 7 \text{ m}) \cdot 4$$

$$4 \text{ km } 34 \text{ m} - 289\,030 \text{ dm}$$

$$80 \text{ km } 976 \text{ m} : 14$$

$$(5 \text{ km } 198 \text{ m} + 3 \text{ km } 112 \text{ m}) : 3$$



4. Uydan vokzalgacha bo'lgan yo'lining uzunligi 2 km 400 m. Qor yog'gandan so'ng, uning ustiga ikki xil oyoq izlari zanjiri tushgan. Birinchi zanjirda 8000 qadam, ikkinchi zanjirda esa 4000 ta qadam bor. Har bir odamning qadam uzunligi qancha? Ularning bo'yi haqida xulosa qilish mumkinmi?





5. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.
- Yo'lovchilar vagonida 9 ta kupe bor. Har bir kupeda 4 ta yotoq o'рни mavjud. Bunday vagonga qancha yo'lovchi joylashishi mumkin?
  - Yo'lovchi poyezdi 4 soatda 340 km yo'lni bosib o'tadi. U 6 soatda necha kilometr yo'lni bosib o'tadi?
  - Toshkent–Buxoro–Urganch–Xiva yo'li 1 160 km ni tashkil etadi. Buxoro–Urganch–Xiva yo'li esa 695 km qisqa. Urganchdan Xivagacha bo'lgan yo'l 40 km. Buxorodan Urganchgacha bo'lgan yo'l qancha?



6. Ushbu tengliklardagi noma'lum bo'linuvchilarni toping.
- $$x : 4 = 9 \text{ (qold. 2)} \quad m : 7 = 2 \text{ (qold. 3)}$$
- $$t : 6 = 3 \text{ (qold. 5)} \quad y : 2 = 8 \text{ (qold. 3)}$$
- Topshiriqlarning qaysi birida qoldikli bo'lish noto'g'ri berilgan?



7. Katakli maydonda ikkita shakl tasvirlangan. Qaysi shaklning perimetri katta ekanini aniqlang.



### 73. Uzunlik birliklari



8. Ifodalarni hisoblang. Qadimda katta masofalar qanday birliklarda o'lchangan?

a)  $45\,000 : 500 \cdot (5\,179 - 4\,951) + 11\,923$

**P** 900

**I** 90

**L** 20 520

**T** 53 103

**A** 21 467

**K** 800

**M** 228

**Y** 3 244

b)  $8 \cdot (56 + 61 \cdot 4) + 728 - (321 - 199)$

**I** 3 006

**A** 300

**M** 20 520

**I** 2 400

**CH** 244

**K** 800

**Q** 122

**R** 3 128



9. Ifodalar yozing va ularning qiymatlarini hisoblang.

a) 5780 soni bilan 900 va 12 sonlari bo'linmasining yig'indisi.


b) 405 va 18 sonlari ko'paytmasi bilan 3976 soni ayirmasi.

d) barcha raqamlar ko'paytmasi.

e) barcha raqamlar yig'indisi.



10. Jasurga bekatgacha eng qisqa yo'lni tanlashda yordam bering. Eng qisqa yo'lning uzunligi qancha?



11. Eng kichik o'lchov birligiga o'tkazib hisoblang.

$7\,410\text{ m} + 2\text{ km } 35\text{ m}$

$8\text{ km } 15\text{ m} - 2\,367\text{ m}$

$7\text{ km } 128\text{ m} : 9$

$7 \cdot 3\text{ km } 19\text{ m}$



12. Poyezd 20 minutda 16 km 280 m masofani bosib o'tadi.

Bu yo'lga nisbatan 44 km 770 m uzun yo'lni u qancha vaqtda bosib o'tadi?